

UDK:632:632.7.05

SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA LOVIYA EKINIDA DONXO‘R BRUXUSLARGA QARSHI KIMYOVIY PREPARATLARNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Omonqulov Dilmurod Baxodir o‘g‘li Murodov Inomjon Quvondiq o‘g‘li Ergashev
Shavkat Murodovich O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Samarqand mintaqaviy filiali

Abstract: *As it is known, one of the most urgent problems in world agriculture is the fight against harmful organisms of agricultural crops in a harmonious way, as well as the cultivation of environmentally friendly products. In the conditions of the Samarkand region, cereal bruchus on a leguminous plant is widespread, causing great economic damage. This article provides information on chemical control measures against the pest of cereal bruchus in a leguminous plant.*

Keywords: *pest, rodents-pests, cereal brux, legumes, beans, grass control, biological efficiency. Nurell-D 55% EM, Karache Duo 20%, Gunsu max 25% em. k.*

Kirish: Ma'lumki dukkakli don ya'ni no'xat, loviya, mosh ekinlari keyingi yillarda bir qancha zararkunandalar bilan zararlanmoqda. Hozirgi kunda dukkakli don ekinlarining eng xavfli zararkunandasi bu donxo'r bruxuslardir. Donxo'r bruxuslar respublikamizning barcha viloyatlarida dukkakli don ekinlari yetishtirish uchun ixtisoslashgan xo'jaliklariga katta zarar keltirmoqda. Donxo'r bruxuslar dala sharoitida hamda donlarni omborxona va shaxsiy xonadonlarda saqlash jarayonida katta zarar keltiradi, zararlangan donlar ekishga hamda istemolga mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda dukkakli don ekinlarida 2023-2024 yillarda donxo'r bruxuslarning yetuk zotlariga qarshi Nurell-D 55 % em.k. 1,0 l/ga, Karache duo 20% n.kuk 0,3 - 0,4 k g /ga, Gunsu Maks 25% em. k 0,1 - 0,2 l/ga sarf miqdorlarda kimyoviy preparatlarni sinovdan o'tkazildi. Tajribaning har bir varianti 3 qaytarishda o'tkazildi. Nazorat variantida esa insektoakaritsidlar bilan ishlov berilmadi.

Purkash ishlari K-90 markali motorli qo‘l purkagichi yordamida 300 l/ga ishchi suyuqligi sarfi hisobida amalga oshirildi. Tajriba qo‘yish va uning samaradorligini hisobga olish ishlari umum qabul qilingan uslub asosida olib borildi. Biologik samaradorlik esa Abbot formulasi yordamida bajarildi.

Tadqiqot natijasi Nurell-D 55 % em.k. 1,0 l/ga qo‘llanilganda ishlovdan keyin hisobning 3-kunida 48,9% biologik samaradorlikka erishildi, 7 - hisob kuniga kelib esa biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 78,9 % ga yetganligi aniqlandi. Eng yuqori biologik samaradorlik 14 - hisob kunida kuzatildi va 89,4 % ni tashkil etdi, ushbu preparatni 1 l/ga sarf miqdorida qo‘llaganimizda hisobning birinchi kunida 54,2% biologik samaradorlikka erishilgan bo‘lsa, eng yuqori biologik samaradorlik 14 - kunda 92% ni tashkil etdi, qolgan hisob kunlarida samaradorlik biroz pasaydi.

Dala tajribasi. Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, “G‘ofir ota” f/x, ishchi suyuqligi sarfi 300 l/ga, iyun 2024 yil.

Variantlar	Preparat ning sarf miqdori, l/ga	Zararkunandalarning 1m ² soni, dona					Biologik samaradorlik, %			
		Dori sepgun cha	Dori sepilgandan keyin, kun.							
			3	7	14	21	3	7	14	21
Nurell-D 55 % em.k.	0,5	8,2	4,9	2,7	1,4	1,8	48,9	8,9	9,4	7,6
Nurell-D 55 % em.k.	1,0	6,9	3,7	2,5	0,9	1,3	54,2	76,8	92,0	89,3
Karache duo20 % em.k	0,1	8,3	5,1	3,4	1,8	1,7	47,5	73,8	86,6	85,7
Karache duo20 % em.k	0,2	7,9	4,3	3,1	1,5	1,9	53,6	75,0	88,2	86,3
Gunsu Maks 25% em. k	0,2	6,2	3,6	3,4	2,1	2,2	50,4	64,9	79,1	79,8
Gunsu Maks 25% em. k	0,3	7,0	3,9	2,8	1,3	2,1	52,4	74,5	88,6	83,0
Nazorat (ishlov berilmagan)		7,6	8,9	11,9	12,3	13,4		-	-	

Keyingi Karache duo 20 % em.k 0,3-0,4 kg/ga sarf miqdorida qo'llanilgan variantda biologik samaradorlik birinchi hisob kunida nazoratga nisbatan 47,5% ni tashkil qilgan bo'lsa, 7 - hisob kunida bu ko'rsatgich nazoratga nisbatan 73,8% ga, 14-kunga kelib esa- 86,6 % ga teng bo'ldi, Karache duo preparatini 0,3 k g /ga sarf me'yorida qo'llanilgan variantda esa birinchi hisob kunida 53,6%, 7- hisob kunida 75,0%, 14-hisob kunida 88,2% hamda 14 - hisob kunlarida 86,3% ni tashkil etdi.

Gunsu Maks 25% em. k 0,1-0,2 kg/ga sarf miqdorida qo'llanilgan variantda hisobning birinchi kunida biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 50,4% ni, 7 hisob kunida 64,9 % ni va 14- hisob kunida - 79,1% ni tashkil etdi. Oxirgi variantimizda ya'ni Gunsu Maks 25% em. k 0,1-0,2 kg/ga sarf miqdorida qo'llanilgan variantda nazortga nisbatan birinchi hisob kunida biologik samradorlik 52,4 % ni tashkil qilgan bo'lsa eng yuqori samaradorlik 14 - kunda 88,6% ga teng bo'ldi (1-jadval).

Xulosa qilib aytganda loviya ekinida donxo'r bruxuslarga qarshi Nurell-D 55 % em.k. 1,0 l/ga, Karache duo 20 % em.k 0,3-0,4 kg/ra, Gunsu Maks 25% em. k 0,1 - 0,2 kg/ga sarf miqdorlarda kimyoviy preparatlarni qo'llanilganda 88 -92 % dan ortiq biologik samaradorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudxo'jayev N.M,Isaev. M. Ba'zi kimyoviy preparatlarni to'rt dog'li donxo'rga qarshi samaradorligi O'simliklarni zararli organizmlardan himoya qilishning uyg'unlashtirilgan usuli va atrof-muhit himoyasi: maqolalar to'plami,Toshkent-1994.B-123.
2. Xo'jaev Sh.T. Qishloq xo'jaligida pestisidlarni ishlatish hamda tadqiqot o'tkazish usul va shartlari. Toshkent. 2020y.
3. Mahmudxo'jayev N.M., Sagdullaev A.U va boshqalar- Dukkakli don ekinlarining asosiy zararkuandalari va kasalliklariga qarshi kurash. Tavsiyanoma. Toshkent - 2012.